

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDOGOGIKA INSTITUTI ANIQ VA TABIIY
FANLAR FAKULTETI UMUMIY KIMYO VA KIMYOVIY
TEKNOLOGIYALARI KAFEDRASI BILAN “04-SENTABR O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI MUSTAQILLIK BAYRAMI” “YANGI O‘ZBEKISTON”
BO‘YICHA**

BAYONNOMASI

04. 09. 2023 yil

Denov tumani

Kun tartibidagi masalalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayramini tantanali kutish.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayramini kunini nishonlash.
3. Tashkiliy masalalar.

Qatnashdilar: Institut va kafedra o‘qituvchilari.

“Ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi jonajon Vatanimiz istiqlolining shonli o‘ttiz yillik to‘yini zo‘r shodu xurramlik bilan nishonlamoqda. “Yangi O‘zbekiston” deb nom olgan mana shu muazzam bog‘da biz bugun birinchi marta Mustaqillik bayramini o‘tkazmoqdamiz. Shu munosabat bilan siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbidan tabriklab, o‘zimning samimiy va ezgu tilaklarimni bildiraman”, deydi davlat rahbari.



kafedra o‘qituvchilari.



“Yangi O‘zbekiston har bir fuqaroning hayotini yana-da yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan, odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, hamma uchun adolatni so‘zsiz ta‘minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng bo‘lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlatdir”,-dedi prezident.

Davlat rahbari mamlakatdagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlab, ularni amalga oshirishda fidoiylilik ko‘rsatayotgan o‘zbek xalqiga chuqur hurmatini izhor etib, ezgu tilaklar bildirdi.

– Siz, aziz yurtdoshlarimni O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz bir yillik bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga baxtu saodat, fayzu baraka tilayman. Ezgu orzu-niyatlarimiz amalga oshsin! Yaratganning o‘zi barchamizni panohida asrasin! Yurtimiz tinch, xalqimiz omon, Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin, – deya so‘zini yakunladi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Denov tumani hokimi va instituti jamoasi bilan davom etdi.

QAROR QABUL QILINDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayramini tantanali kutish;
2. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayramini kunini nishonlash bo‘yicha tadbirlar tashkil etilsin;
3. Ushbu qarorlar ijrosini ta‘minlash S.Sh.Ismatovga yuklatilsin.

Umumiy kimyo va kimyoviy

texnologiyalari kafedrası mudiri:

Kotib:



dots. S.Sh.Ismatov

A.X.Raximov